

XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim kuchdir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinmoqda, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2021-y. ■ 2022-y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

5



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(tumanlar bo'yicha, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,6** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



- Dehqonchilik, chovchilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,9 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 751 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining (o'tgan yilning mos davriga nisbatan) asosiy omili ular sonining ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 12,8 foizga (jami sanoatdagi ulushi 97,8 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 10,5 foizga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida – 25,5 foizga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 foiz) o'sishidir. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati o'tgan yilga nisbatan 100,0 foizga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 foiz) teng bo'ldi.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan

2,4 foizga oshdi



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




2,0
foizga
oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,4
foizga
oshdi




Oilaviy korxonalar



5,7
foizga
oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar






O'tgan yilga
nisbatan **7,5**
foizga kamaydi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10




Jami faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlarning
umumiyl soni o'tgan yilning shu
davriga nisbatan **8,1** foizga
oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




11,5
foizga
oshdi




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



19,6
foizga
oshdi



Oilaviy korxonalar




30,6
foizga
oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
12,5 foizga oshdi



Xususiy korxonalar



1,0
foizga
oshdi



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

564



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

25



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

10



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



264
yashash bo'yicha
xizmatlar



1 449
Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 713 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7 foizga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlarning – 11,7 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 84,6 foiz), yashash bo'yicha xizmatlarning - 12,8 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 15,4 foiz) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,7** foizga oshdi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



11,8
foizga
oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklagan jamiyatlar



26,4
foizga
oshdi



Oilaviy korxonalar




12,6
foizga
oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



*O'tgan yilga nisbatan
10,0
foizga oshdi*



Xususiy korxonalar soni



0,5
foizga
kamaydi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,0 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



12,9 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar soni



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,8 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan iamiyatlar




23,9
foizga
oshdi




Oilaviv korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar soni




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 6 028 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 497 taga yoki 33,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 425 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 152 taga yoki 27,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin. 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 289 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 428 taga yoki 49,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, 14 442 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 421 taga yoki 20,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 473 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 067 taga yoki 18,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 613 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 608 taga yoki 30,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 195 tani tashkil etib, ulardan 185 tasi yoki 95,4 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 3,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

18

	2021- yil	2022- yil
Jami	193	186
shu jumladan:		
Rossiya Federatsiyasi	48	45
Turkiya Respublikasi	50	50
Turkmaniston Respublikasi	27	27
Xitoy Xalq Respublikasi	15	13
Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	10	8
Boshqa davlatlar	43	43

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

19

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xorazm viloyati	186	107	79
Urganch sh.	69	40	29
Xiva sh.	17	11	6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	5	3	2
Gurlan	7	5	2
Qo'shko'pir	7	5	2
Urganch	20	5	15
Hazorasp	6	3	3
Tuproqqa'l'a	8	3	5
Xonqa	8	5	3
Xiva	15	8	7
Shovot	8	7	1
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	10	8	2

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomalar tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

*Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:62 224-65-11*